

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XALQARO KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH AMALIYOTINING TAHLILI

Choriyeva Munojot G‘aybulla qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Iqtisodiyotni monitar tartibga solish yo’nalishi talabasi

choriyevamunojot@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13971298>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tijorat banklari tomonidan xalqaro kredit liniyalarini jalg etish va O‘zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro kreditlarni jalg qilish masalasi bevosita mamlakatdagi inflyatsiya darajasi hamda mamlakat banklarning ichki resurslari qimmatligi muammozi bilan bog‘liqligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, xalqaro kredit liniyalarini jalg etish, inflyatsiya darajasi.

ANALYSIS OF THE PRACTICE OF ATTRACTING INTERNATIONAL CREDIT LINES BY COMMERCIAL BANKS

Abstract. In this article, it is expressed that the issue of attracting international credit lines by commercial banks and attracting international loans to the economy of Uzbekistan is directly related to the level of inflation in the country and the problem of the cost of internal resources of the country's banks.

Key words: Commercial banks, attraction of international credit lines, inflation rate.

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ КРЕДИТНЫХ ЛИНИЙ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ

Аннотация. В данной статье высказывается, что вопрос привлечения международных кредитных линий коммерческими банками и привлечения международных кредитов в экономику Узбекистана напрямую связан с уровнем инфляции в стране и проблемой стоимости внутренних ресурсов. банки страны.

Ключевые слова: Коммерческие банки, привлечение международных кредитных линий, уровень инфляции.

Kirish. Bugungi kundagi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida olib borilayotgan keng doiradagi ishlar ushbu yo‘nalishdagi muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslikni hamda xorijiy kredit liniyalari hisobidan investitsiyalarni jalg qilish zarurligini anglatadi. Ushbu muammoni samarali yechish bugungi kunda olib borilayotgan mamlakatimizdagи banklarning transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, shu bilan birga xalqaro kreditlarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga samarali kiritish hamda yo‘naltirish uchun mamlakatimizdagи mahalliy tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta’minalash, buning uchun esa mamlakatimizdagи tijorat banklari orasida sog‘lom raqobat muhitiga erishish muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro kreditlarning assosiy kirish kelishida tijorat banklari assosiy kanal bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklari xavfsizligini kuchaytirish, barqarorligi va likvidliligini ta’minalash masalalari davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda dangal masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda xorijiy banklarning jalg qilinayotgan kredit liniyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois,

respublikamiz tijorat banklari ushbu maqsad yo‘lida o‘z kredit resurslarini shakllantirishda xorijiy hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda¹. Umuman olganda, bugungi kunda respublikamizda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning bir qator shakllari mavjud. Unga ko‘ra banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish keng shakllarda amalga oshirilmoqda. Unda tijorat banklarining kreditlash shakllari ichida xorijiy banklarning kredit liniyasini ochish yo‘li bilan alohida ssuda schetidan kreditlash keng tarqalgandir. Biz uchun muhim bo‘lgan va yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlash shakli amaliyotda xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy banklar va boshqa xorijiy hamkorlar tomonidan mahalliy banklarimizda ochilgan kredit liniyalari ochish hisobiga amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, mazkur shaklda tadbirkorlik faoliyatini, xususan, investitsiya loyihalarini kreditlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Unga ko‘ra kredit liniyasi ochishda kreditdan maqsadli foydalanish va uni qaytarish ustidan nazoratni amalga oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi¹⁸.

O‘z navbatida xalqaro kreditlarni quyidagi turlarga bulishimiz mumkin

1. Standart tijorat kreditlari: Bu tur kreditlar, ishlab chiqarishdan ro‘yxatdan o‘tkazishga qadar bo‘lgan har qanday tijorat faoliyati uchun xizmat qiladi. Standart tijorat krediti odatda uzun muddatli bo‘ladi.

2. Istisnoiy tijorat kreditlari: Istisnoiy tijorat kreditlari, boshqa turdagи tijorat kreditlaridan farqli xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bu turdagи kreditlar, xususiy daromad olish yoki mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladi.

3. Ishonchli to‘lovli kreditlar: Ishonchli to‘lovli kreditlar, mablag‘ni to‘lashga yoki shaxsiy javobgarlikni ta’minlashga yordam beruvchi garantlar bilan birlashgan ko‘rinishda beriladi.

4. Kafolatlangan to‘lovli kreditlar: Kafolatlangan to‘lovli kreditlar, birorta shaxs yoki korxona tomonidan taklif etilgan zaminlik orqali beriladi. Bunday turdagи kreditlar faqat korxona yoki shaxs tomonidan emas balki davlatlar tomonidan ham kafolatlanadi. Bunday ko‘zlangan asosiy maqsad davlatdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlanirishdir.

5. Kreditlar bo‘sh ish joylari uchun: Bu tur kreditlar, korxonalarga ishchi qabul qilishda yordam beradi. Bu kreditlar muddati uzun va kafolatlangan to‘lovli kreditlar ko‘rinishida beriladi. Bunday kreditlarni davlat keng qullab quvvatlaydi va ushbu kreditni oluvchi korxonalarga turli soliq imtiyozlari va davlat grantlari ajratadi. Chunki bunday kreditlar aholini ish bilan bandligini oshirish va ularning daromadlarini oshishiga katta yordam berishi mumkin.

Xalqaro tijorat kreditlari kuzatilgan maqsadlar o‘zgartirib turadi, ammo umumiy ravishda ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxonalar uchun moliyaviy resurslarni ta’minlash va rivojlanishni yaxshilash;
2. Xalqaro savdo va import-eksport operatsiyalarini amalga oshirish;

¹ J.X. Ataniyazov, F.A. Xamidova, M.B. Pulatova. Xalqaro moliya institutlari. O‘quv qo’llanma. 2020- yil -156b. ¹⁸ J.X. Ataniyazov, E.D. Alim ardonov. Xalqaro moliya munosabatlari: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jam iyati nashriyoti, 2014. - 432 b.

3. Tajribasiz korxonalar uchun xalqaro bozorlarda foydalanish imkoniyatlarini yaratish;
4. Xususiy shaxslar uchun buyurtmalar va xizmatlar uchun kreditning taqdim etilishi;
5. Kredit muddati davomida malum bir maqsadni amalga oshirish (masalan, yangi biznes yaratish, texnologik innovatsiyalar, qurilish loyihasi amalga oshirish va hokazo);
6. Moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash (katta miqdorli hisob-kitoblarda, aktivlar kattalashishi, daromadning ortishi va hokazo).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Jahon banking "Biznes yuritish" reytingidagi past ko'rsatkichlar – reytingning "Kredit olish" yo'naliishida O'zbekiston 67-o'rinni egallagani strategiyaning Bank tizimini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va muammolar qismida keltirilgan. Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilishi ham xalqaro kreditlarni jaib qilish masalasiga bevosita bog'liq.

Yuqoridagi Strategiya doirasida bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, ulardan biri, bu – strategik xorijiy investorlarni jaib qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bank faoliyatini izchil liberalallashtirish va uni eng yaxshi xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Banklar xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv orqali yangi arzon resurs manbayini o'zлari uchun ochish imkoniyatini qo'lga kiritadilar va bu o'z navbatida xalqaro kreditlarning oson oqib kirishi uchun qulay sharoitni hozirlab beradi.


Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizning xalqaro moliya institatlari va chet mamlakatlar banklari bilan aloqalarida uzoq muddatli va qisqa muddatli ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifalarni belgilash davlatimizning xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini kuchaytirish maqsadlarini ko'zlab amalga oshiriladi. Bunda, birinchidan, mamlakatimizdagi barcha xo'jalik subyektlarining tashqi dunyo mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlari uchun teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan hamda mamlakatimizning milliy manfaatlariaga mos keluvchi shartlar asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo munosabatlariga qo'shilish nazarda tutilsa, ikkinchidan, respublikaning mavjud muammolarini hal qilishga to'g'ridan to'g'ri yordamlashish, xalqaro tajribalarga tayangan holda moliyaviy, texnik yordam va tavsiyalar olish yo'li bilan olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari ajratilmoqda. Ushbu yo'naliish bo'yicha tijorat banklari o'zlarining turli xildagi kredit mahsulotlarini taklif qilmoqdalar. Bu turdag'i mahsulotlar orasida eng aktual bo'lib Osiyo Taraqqiyot Banking mablag'larini jaib qilgan holda "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ tomonidan tijorat banklari sektorida uzoq muddatli kreditlash muammosini hal qilish maqsadini ko'zlagan holda, qayta moliyalashtirish

shartlari asosida ajratilayotgan ipoteka kreditlari hisoblanadi. Ushbu kreditlar bugungi kunda tijorat banklariga 12,5 foiz stavkasida ajratilib, tijorat banklari o‘zlarining marjalarini qo‘yan holatda, ushbu marja 5 foiz miqdorida uj-joy xaridi uchun, 4 foiz miqdorida uy-joyni ta’mirlash maqsadlari uchun ajratadilar. Hozirda ko‘pchilik tijorat banklari ushbu mablag‘lar hisobidan ikkilamchi bozordagi turar joylar uchun ipoteka kreditlarini 17,5 foiz stavkasida 20 yil muddatga bir oylik sof daromadi 15 million so‘mdan oshmaydigan fuqarolar va bir kishining rasmiy oylik daromadi kredit to‘lovi uchun yetarli bo‘lmaganda birgalikda qarz oluvchilar jami sof oylik daromadlari yig‘indisi 15 million so‘mdan oshmagan fuqarolarga ajratmoqdalar. Bu holat o‘rtal va quyi qatlama ahonisining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirishga yordam bergan holda, aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Osiyo taraqqiyot banki mintaqalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlar va texnik yordamlar ko‘rsatish orqali Osiyo davlatlarining iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirish yo‘nalishlarida xalqaro kreditlarni ajratib kelmoqda. Osiyo taraqqiyot banki a’zo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissasini qo‘sadigan va davlatlar strategiyasiga mos holda kambag‘allikni kamaytirishga kuchli ta’sir qiluvchi loyihalarini moliyalashtirib keladi.

So‘nggi yillarda bir tomondan, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi hamda iqtisodiyotda davlat ulushining qisqarib borishi, ikkinchi tomondan, muqobil moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektorning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun bank kreditlariga bo‘lgan talabi yuqoriligidcha qolmoqda.

Ushbu yuqori talabni qondirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2023-yilda 581 mingdan ortiq loyihalarga jami 160 trln so‘m miqdorida yoki 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘p kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.



1-rasm. 2023-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi²

Hisobot yilida kichik va o‘rta tadbirkorlikni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlanirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun 573 mingdan ortiq loyihalarga jami

73 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy <https://stat.uz/uz/> saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Tadbirkorlarning loyihamashtirish bo'yicha 2023-yilda tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalari hisobidan hududlarda 16 mingga yaqin loyihamar uchun 3,2 mlrd dollarlik kreditlar ajratilgan, jumladan, to'g'ridanto'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 2,7 mlrd dollar (jami xorijiy kredit liniyalarining 86 foizi) miqdorida kreditlar yo'naltirildi. Bunda, 1,2 mlrd dollar miqdorida mablag'lar kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish uchun ajratildi.

Hisobot yilida sohalar kesimida xorijiy kredit liniyalari mablag'larining yo'naltirilishi qishloq xo'jaligiga hamda xizmat ko'rsatish sohalariga o'tgan yilga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, sanoatga 1,5 barobarga, qurilis hga 2,7 barobarga, savdo va umumiylowqatlanish 1,6 barobarga va transport sohasiga 3,3 barobarga oshdi.

Global iqtisodiy noaniqliklar va jahon bozorida asosiy xomashyo mahsulotlari narxlarining keskin tebranishlari sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlashga erishish uchun ushbu sohani moliyaviy qo'llabquvvatlash davom ettirilib, 2024-yil 1-yanvar holatiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihamalarga jami ajratilgan kreditlar qoldig'i 23,8 trln so'mni tashkil qildi.

Ushbu kreditlarning 12,3 trln so'mi issiqxona (52 foiz), 4,2 trln so'mi chorvachilik (18 foiz), 2,4 trln so'mi muzlatgichli omborxona (10 foiz), 2,0 trln so'mi parrandachilik (8 foiz), 1,3 trln so'mi bog'dorchilik (5 foiz), 591 mlrd so'mi baliqchilik (2 foiz), 557 mlrd so'mi sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish (2 foiz) va 372 mlrd so'mi go'sht va sutni qayta ishslash loyihamalarni (2 foiz) moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Xulosa. Tijorat banklari tomonidan xalqaro kredit liniyalarini jalb etish amaliyoti moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va xalqaro moliya bozorlarida ishtiroy etish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, ushbu jarayonda banklar moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish va xalqaro talablarni bajarish zaruriyatiga duch keladilar. Shu bilan birga, tijorat banklarining samarali strategiyasi xalqaro kredit liniyalarini muvaffaqiyatli jalb etishga va milliy iqtisodiyotga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Xalqaro kredit liniyalarini jalb etish bo'yicha tijorat banklari uchun quyidagi takliflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- Mahalliy valyutada kredit liniyalarini rivojlantirish

Mahalliy valyutada xalqaro kredit liniyalarini rivojlantirish tijorat banklari uchun valyuta xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Buning uchun xalqaro moliya tashkilotlari bilan mahalliy valyutada moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borish lozim. Bu nafaqat banklar, balki milliy iqtisodiyot uchun ham foydal bo'ladi.

- Raqamlı texnologiyalarni joriy qilish

Banklar xalqaro kredit liniyalarini jalb qilishda raqamlı texnologiyalarni kengroq qo'llashi zarur. Masalan, blockchain texnologiyalari orqali shartnomalarni kuzatish va xalqaro to'lovlarini amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirishga va ishonchlilikni oshirishga yordam beradi.

- Xalqaro tajriba va bilim almashish

Xalqaro kredit liniyalarini muvaffaqiyatli jalb etish uchun xalqaro moliya institutlari bilan tajriba almashish va doimiy ravishda xorijiy moliyaviy bozorlar haqida ma'lumot olish zarur.

Buning uchun tijorat banklari xalqaro moliyaviy konferensiyalarda ishtirok etishi va ilg‘or xalqaro amaliyotlarni o‘zlashtirishi mumkin.

- Uzoq muddatli strategik hamkorlikni rivojlantirish

Xalqaro kredit liniyalarini jalb etishda uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish muhim. Buning uchun banklar xorijiy moliyaviy tashkilotlar bilan barqaror va uzoq muddatli strategik hamkorlik aloqalarini o‘rnatishlari kerak. Bunday hamkorlik banklar uchun moliyaviy resurslarni doimiy va barqaror manbalardan jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan takliflar xalqaro kredit liniyalarini jalb etishda tijorat banklari uchun muhim yo‘nalishlar hisoblanadi. Ushbu strategiyalarni to‘g‘ri joriy etish orqali banklar o‘z moliyaviy resurslarini kengaytirish va xorijiy bozorlarda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sod Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sod Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy <https://stat.uz/uz/> saytidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi
5. J.X.Ataniyazov, E.D. Alim ardonov. Xalqaro moliya munosabatlari: darslik.T:-Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jam iyati nashriyoti, 2014. - 432 b.
6. J.X.Ataniyazov, N.X.Jumayev, E.D.Alimardonov. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari (1-qism). Darslik. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. - 168 b.